

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KREATIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AXAMIYATI

Saipova Barno Jamalidinovna

Xalqaro nordik universiteti magistratura bo'limi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10258552>

Hozirgi kunda jamiyatimizning Maktabgacha ta'lim tashkiloti oldiga qo'yayotgan talablari kundan-kun ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amaliy faoliyatda bajarish tarbiyachining vazifasidir. Bugungi kunda respublikamizda Maktabgacha ta'lim sohasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Xususan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakillantirish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi shakillarini joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash maqsadida 30.09.2017-yil PQ-3305 sonli " O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligi faoliyatini tashkil etish" to'g'risidagi1 qarori imzolandi. Bundan tashqari prezidentimizning 05.04.2018-yildagi PQ-3651 sonli "Maktabgacha ta'lim tizmini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish choratadbirlari" to'g'risidagi qarori ham buning yaqqol dalilidir. Biz bilamizki pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan tarbiyachi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida sharq mutafakkirlari asarlarida o'z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar pedagoglarning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Abu Ali Ibn Sino o'z asarlarida, pedagog bolalarga ta'lim berishdek ma'suliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvoffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quydagi tavsiyalarni beradi: bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lishi, ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi, mashg'ulotga bolalarni qiziqitira olishi, yangiliklar yaratishga intiluvchanligi va hokozolar. Bugungi kunda tarbiyachi eng faol shaxs sifatida o'z kasbiga oid zamonaviy bilimlarni egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo'lishi lozim, chunki u bolani yoshligidan ma'naviy, aqliy, axloqiy, intellektual va shu jumladan jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega shaxs hisoblanadi . Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiiq etish tarbiyachidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. Tarbiyachining kreativligi – bu uning o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi, hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ulardan ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda va shu bilan birga tarbiyachipedagoglarning ish faoliyatini yanada yuksaltirish, kasbiy mahoratlarini va kreativligini oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Tarbiyalanuvchilarni bilimdon va ma'nan yetuk insonlar sifatida shakillantirishda ularning ta'lim olishga, mashg'ulot jarayoniga, bilim egallashga bo'lgan ichki psixologik yo'nalishni shakillantirishda pedagog-tarbiyachilarning tutgan o'rni alohida. Aynan tarbiyachi bolalar uchun andoza sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, tarbiyachining kreativligi, harakatchanligi, bolalarni tushuna olishi, kommunikativ va perseptiv (bolani tushuna olish) qobiliyatlari bilan bir qatorda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalarda harakatchanlik, qiziquvchanlik hamda bilishga bo'lgan ishtiyoq kuchli bo'lishi bir qator psixolog olimlar tomonidan ilmiy jihatdan isbotlangan. Faqatgina bunday qiziqish va ishtiyoqlarni ijobiy

tomonga yo'naltirish talab etiladi. Buning uchun esa tarbiyachidan yanada ko'proq izlanishni, ijodkorlikni va intiluvchanlikni talab etadi. Kreativlik nima? Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har bir kishiga xos bo'lgan, lekin mavjud tarbiya, ta'lim va ijtimoiy amaliyot tizimi ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan ijodiy yo'nalishdir. Kreativlik ( lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib tarbiyachining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etiladi.

Ingliz psixologi E.P.Torrens kreativlikning quyidagi to'rtta ko'nikmasini aniqlagan bo'lib, bular;

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi "ko'p" degan so'zga asoslanadi
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish "ko'nikmani o'zgartirish" degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi "noyob" degan so'zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi "qo'shish" degan so'zga asoslanadi.

P.Torrens fikricha, kreativlik: muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish, qaror natijalarini shakillantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qaram-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. Pedagoglarning kreativ sifatlarga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatni tashkil etishda, ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, bolalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar to'g'risida doimiy, izchil fikr almashish ko'nikmasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi. Xorij pedagoglari, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa pedagog-tarbiyachining kreativligi boshqalarning ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi. Ko'pgina pedagog-tarbiyachilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar.

**Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin;** Birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'no anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; Ikkinchidan; kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar. Ayni o'rinda shuni aytish o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega.

Xo'sh ular o'zlarida kreativlik qobiliyatini qanday aks etishlari mumkin degan savol tug'iladi. Bu borada Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agar o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki mashg'ulotlarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi

g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir". Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki P. Drapeau nuqtaiy nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Pedagog-tarbiyachi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Ijodkorlik - muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi. Ijodkor shaxs

- ijodiy jarayonni muvofaqiyatli amalga oshira oldigan hamda aniq ijodiy natijalarga ega shaxs. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Kreativ fikrlaydigan tarbiyachiga qo'yiladigan zamonaviy talablar shundan iboratki, u axborotchi emas, balki bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda muvofiqlashtiruvchi (coordinator), boshqaruvchi (menejer), muloqot tashkilotchisi, maslahatchi bo'lishi kerak.

### References:

1. Sh.M.Mirziyoyev. "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligi faoliyatini tashkil etish" to'g'risidagi PQ-3305 son qarori. 30.09.2017-y, 1- bet.
2. Sh.M.Mirziyoyev. "Maktabgacha ta'lim tizmini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3651 son qarori. 05.04.2018-y, 2-bet.
3. Sh.M.Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" – Toshkent;- "O'zbekiston", 2017-y, 25-bet.
4. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" Monografiya.- T.:Fan,2004,34-bet.
5. Qovlonbekov A.A. OILAVIY NIZOLAR VA ULARNING TAVSIFI Conference Zone 289-296
6. Qovlonbekov A.A. OILAVIY AJRIMLARNI OLDINI OLIHDA NIKOH OLDI OMILLARINING AHAMIYATI VA OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI Новости образования: исследование в XXI веке 1/ 9 Страницы: 1490-1497.